E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

MILLIY AN'ANALARGA ASOSLANGAN "USTOZ-SHOGIRD" TIZIMIDAN FOYDALANISH

Zokirjon Sotivoldievich Mahmudov

Dotsent

Insomiddin Biloliddinovich Najmiddinov

Katta o'qituvchi

Namangan muhandislik qurilish instituti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan boy tarixiy "ustoz-shogird" tizimidan foydalanib oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy muhitni shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, ustoz, shogird, ta'lim, tarbiya, usul, tarix, an'ana, kasb-xunar, komil inson, an'ana, milliy urf-odat.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an'analarni singdirish, ularni ilg'or g'oyalar bilan boyitish asosida yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan harakatlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Istiqlol sharofati bilan buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaho ma'naviy meros, unutilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak muhandis kadrlarni tayyorlashda nafaqat ta'lim berilayotgan fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki talabalarni auditoriyadan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy xislatlarni yuksaltirish hamda kasbga yo'naltirishda "ustoz-shogird" an'analaridan foydalanish extiyojga aylanib bormoqda.

Xalqimizda "ustoz-shogird" an'anasi asoslaridan biri bo'lgan, ota-onaning o'z farzandini komil inson qilib tarbiyalash, kelajakda mustaqil xayot kechirish uchun kasb-hunar egallash maqsadida o'z xududidagi etuk insonlarga shogirdlikka berish ko'p asrlik tarixga ega. Bu an'ananing e'tiborga molik jixati shundan iboratki, ota-ona farzandini ustozi oldiga olib kelib, undan shogirdlikka olish haqida ijobiy fikr olgach farzandini "eti sizniki, suyagi bizniki" iborasini aytib farzandini shogirdlikka berishgan. Ushbu ibora shogird bilan ustoz o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish uchun asos bo'lib hizmat qilgan. SHu ibora asosida ustoz ham, shogird ham ma'lum bir burch va mas'uliyatlarga ega bo'lishgan. Ustoz o'ziga biriktirilgan shogirdni yuqori darajadagi mutaxassis bo'lib etishishi uchun o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatidagi ishlarni amalga oshirishi kerakligi, shogird esa ustozi bergan bilimlarni puxta egallab, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli qilib bajarishlari, xar jixatdan o'rnak bo'lishlari lozim bo'lgan.

"Ustoz-shogird" munosabatlari yurtimizda qadim zamonlardan buyon davom etib, rivojlanib, sayqallanib kelgan. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ham yuksaklikka erishish yo'lida ustozlari ko'magi bilan yuqori darajalar va maqomlarga erishishgan.

Butun islom dunyosiga ishonchli xadislar to'plamini tortiq qilgan buyuk muxaddis Imom Al-Buxoriy (810-870) o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

xadislarni mutolaa qilib yod olgan va ustozi SHayx Doxiliyga shogird tushib, undan juda ko‘p ta’lim-tarbiya olgan va uning oqibatida ustozi bilan xadis rivoyatlari haqidagi qizg‘in baxslarda ishtirok etgan.

Faoliyati davomida jaxonshumul ahamiyatga ega asarlar yaratgan xadis ilmi olimi Abu Iso Muxammad At-Termiziy uzoq yillar Iroqda, Isfaxon, Xuroson, Makka va Madinada yashab ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Davud, Qutayba ibn Sa’iyd, Isxoq ibn Muso, Mahmud ibn G‘aylonlardan ilm-fanning turli soxalari – ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqx, tarix va xadis ilmidan uzoq vaqt davomida ustozlaridan saboq olgan. O‘z navbatida at-Termiziy Muxammad ibn Mahmud, Xamad ibn SHokir, Axmad ibn YUsuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muxammad ibn Mahbub al-Maxbubiy kabi ulug‘ zotlarga ustozlik qilib “ustoz-shogird” an’analarini davom ettirganlar.

Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-950) ustozlari Abu Bashar Matta ibn YUnusdan yunon tili va falsafasini, YUxanna ibn Xiylondan tabobat va mantiq ilmini qunt va sabot bilan o‘rgandi va ulardan olgan o‘gitlari bo‘lajak asarlari ustida ishlash jarayonida qo‘l keldi.

O‘rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayxon Beruniy (973-1048) o‘z ustozi astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar muallifi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo‘lida shogird sifatida ta’lim olgan. Beruniy ustozidan ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni – arab, so‘g‘diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yaxudiy tillarini o‘rgandi.

Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) bolalik yillarida buvisi Saroymulkxonim tarbiyasida bo‘lgan. So‘ngra Amir shox Malik yosh mirzoga otabegi etib tayinlangan. O‘sha davrlardagi saroy munajjimi Mavlono Axmad Ulug‘bekka samo sirlarini o‘rgatadi. Keyinchalik esa ustoz sifatida Qozizoda Rumiy tanlanib, uning qo‘li ostida shug‘ullanib kamolga etgan.

Ustoz-shogird an’anasi borasida xazrat Alisher Navoiy ibrati beqiyos va barchaga namunalidir. Bo‘lajak mutafakkirning kamol topishida otasi G‘iyosiddin kichkinaning mehnatlari katta bo‘lgan. Alisher Navoiyning buyuk alloma sifatida shakllanishida otasidan tashqari Sulton Abulqosim Bobur, Said Xasan Ardasher, Sulton Xusayn Boyqaro, Abduraxmon Jomiy bilan ustoz-shogirdlik, ota-bolalik, do‘stlik aloqalari unga juda katta foyda berganini ta’kidlash lozim. Ustozi Said Xasan Ardasher haqida Alisher Navoiy “Xoloti Sayyid Xasan Ardasher” nomli nasriy asarida “ Ammo adab va hilm va tavozu’ va xayo zotlarig‘a aningdek – g‘olib ermishkim, bu mujmal mazkur bo‘lg‘on fazoyildinki, tavsili” : sarf va nahv va lug‘at va arabiyat va mantiq va kalom va fikx va xadis va tafsirdur va soyir tasnifot, misli : she’r va muamma va ta’rix va nujum va advor va musiqiy bo‘lg‘ay agar ba’zi majolisda so‘z o‘tsa erkandur, bovujud ulki, majlis ahlining ko‘pidin yaxshiroq bilur erkandurlar ham hayo va adab jixatidin, ham birovga, ilzomu xijolat etmasun deb, ko‘p so‘z aytmas ermishlar, balki ko‘p majolisda takallum ham qilmas ermishlar” deya ulug‘laydi [3].

Bugungi kunga kelib “ustoz-shogrid ” an’analari yanada takomillashib, davr sinovidan muvaffaqiyatli o‘tib, rivojlanib ta’lim – tarbiya jarayoni asosiy tashkil etuvchisi bo‘lib ulgurdi.

“Ustoz-shogird” an’analari - yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so‘z bilan aytganda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda o‘ziga xos tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu an’ananing yana bir harakterli tomoni shundan iboratki, unda talabaning o‘z imkoniyatlariga ishonch tuyg‘ulari shakllanadi va rivojlanadi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish hamda irodaviy sifatlar sayqallanadi, qolaversa talabaning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida amalga oshadi. Xalqimizda “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar”

maqoli bejiz aytilmagan, har qanday mutaxassis ustoz ko‘magisiz yuqori natijalarga erisha olmaydi.

Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o‘zi kasbiy salohiyatli, ma’naviy barkamol, keng dunyoqarashga ega bo‘lishi va sog‘lom fikr sohibi bo‘lmog‘i lozim. Qadimdan yurtimizda “ustoz-shogird”lik an’analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma beribgina qolmay, o‘z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o‘zidan keyin ish-tajribani bilish va mahoratini avloddan-avlodga o‘tkazish imkoniyatini yaratib bergan.

“Ustoz-shogird” munosabatlarini amalga oshirish muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ustoz shogirdga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirishi, yagona maqsad sari intiltirishi, ishning natijasini ko‘ra bilishga o‘rgatishi, shogirdning ruhiyati, ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishi va o‘z o‘rnida talabchan bo‘lishi, shogirdini o‘z-o‘zini va o‘zgalarni xurmat qilishga odatlantirishi, ma’lum marrani ko‘zlagan holda olg‘a odimlashi, tarbiyada turli xil usullardan foydalanishga e’tibor qaratishi, ma’naviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna bo‘lishi lozim.

SHuningdek ustoz-shogird borasidagi ishlarni rejalashtirishda yuqorida keltirilganlarga qo‘shimcha quyidagi faktorlarni hisobga lozim:

- milliy urf-odat va an’analarni hisobga olish;
- jaxondagi etakchi mutaxassislarning bu boradagi tajribalarini e’tiborga olish;
- mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratish;
- shogirdlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muxitini shakllantirish .

Yuqorida keltirilganlarga qo‘shimcha sifatida ustoz maslaxatlaridan foydalangan xolda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, talabani adabiyotlar va internet saytlari bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish masalasi xozirgi kun uchun muhim omillardan biri xisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz oliy ta’lim tizimida “ustoz-shogird” an’analaridan foydalanish an’anasini davom ettirish orqali oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ko‘zlangan samarani beradi. Pedagogik ta’limot g‘oyalariga ko‘ra amaliy ko‘nikma va malakalar bevosita mashqlantirish, ya’ni muayyan faoliyatni amalda bevosita bajarish orqali shakllanadi. “Ustoz-shogird” an’anasi esa talaba-yoshlarda bevosita ishlash, ularning indivudial hususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, olib borilgan mehnat samaradorligidan g‘ururlanish kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlari, an’analari axloq-odob qoidalariga amal qilishda xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida e’tibor berish kerak va bu borada yig‘ilgan bilimlardan unumli foydalanishda ustozlar o‘z kuchi, aql-zakovatini shogirdlar tarbiyalashda ayamasliklari lozim.

Адабиётлар:

1. Mahmudov Z. Application Of Venn Diagrams In Lectures On Theoretical Mechanics //International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. – 2021. – T. 24. – C. 219-222.
2. Sotivoldievich Z. M. A Way To Increase Students Activity In The Organization Of Lectures //International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. – 2021. – T. 25. – C. 90-92.
3. Mahmudov Z. S., Daminov J. A., Rahimov A. M. The Use Of Cluster Method In Lectures On Theoretical Mechanics //International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. – 2018. – T. 27. – C. 145-147.

4. Mahmudov Z. S., Najmiddinov I. B. Improving the quality of education on the basis of demonstrations in lectures //International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. – Т. 27. – С. 80-85.
5. Gafurovich D. U., Sotivoldievich Z. M. The use of non-conventional power sources is a requirement of the period //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 07. – С. 121-126.
6. Махмудов З. С., Дехканов У. Г. Повышение благосостояния народа-основная цель государства //Электронный инновационный вестник. – 2021. – Т. 3.
7. Sotivoldievich Z. M., Rakhimdjanovich K. V. Demonstration in improving the quality of education //Conference Zone. – 2021. – С. 304-308.
8. Sotivoldievich Z. M., Rakhimdjanovich K. V. The Problem Of Organizing Exhibitions Of Theoretical Mechanics Lessons //Design Engineering. – 2021. – С. 9569-9572.
9. Sotivoldievich Z. M., Rakhimdjanovich K. V. About the Method of Assessing Students' Knowledge //Design Engineering. – 2021. – С. 9579-9585.
10. Sotivoldievich Z. M. A Method of Assessing Students' Knowledge in Practical Classes //Design Engineering. – 2021. – С. 9573-9578.
11. Махмудов З. С., Тошмирзаев М. М. К вопросу о повышения качества лекционных занятий будущим энергетикам //Интернет-портал «Онлайн-электрик.–2014. – 2014.
12. Махмудов З. С. Применение диаграммы Венна на занятиях //Электронный инновационный вестник. – 2021. – №. 1. – С. 4-5.
13. Sotivoldievich M. Z., Mutalovich R. A. ABOUT A WAY TO EVALUATE STUDENTS'INDEPENDENT LEARNING //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 165-170.
14. Махмудов З. С. и др. Ҳозирги кун ёшлари олдига қўйиладиган вазифалар хусусида //Научное знание современности. – 2017. – №. 6. – С. 11-14.
15. Тиллабоев Ё., Махмудов З. Возможности теории графа в электрических системах //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 7. – С. 310-315.
16. Тиллабаев Ё. К. и др. ВОЗМОЖНОСТИ MATHCAD ПРИ ОПРЕДЕЛЕНИИ ПЕРЕХОДНЫХ ПРОЦЕССОВ //Научное знание современности. – 2017. – №. 6. – С. 122-125.
17. Sotivoldievich Z. M. About a new way of assessing students' knowledge in lectures //International Engineering Journal for Research & Development. – 2021. – Т. 6. – №. 5.
18. Махмудов З. С. и др. Курувчи-муҳандисларга назарий механика фанини ўқитишда фанлараро узвийликни таъминлаш //Научное знание современности. – 2017. – №. 8. – С. 20-22.
19. Махмудов З. С., Даминов Ж. А., Юлдашев Ф. Ш. ПРИМЕНЕНИЕ ДИАГРАММЫ ВЕННА НА ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ //НАУЧНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ «МАТРИЦА НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ». – С. 44.
20. Махмудов З. С., Даминов Ж. А. НАЗАРИЙ МЕХАНИКА ФАНИ ДАРСЛАРИНИ КЎРГАЗМАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАСИ //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 709-715.
21. Махмудов З. С., Аъзамов К. С. О НОВОМ СПОСОБЕ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 850-854.
22. Dehkanov U. G., Makhmudov Z. S., Azamov Q. S. General Equation of the Moment of a Concave Wing //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 70-74.

23. Dehkanov U. G., Makhmudov Z. S., Azamov Q. S. Practical Equation of Torque for a Concave Wing Rotor Drive //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 230-234.

24. Sotivoldievich M. Z. et al. The use of venn diagrams in independent study of theoretical mechanics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – C. 192-197.

25. Abduvalievich D. J. et al. ON THE ASSESSMENT OF STUDENTS'KNOWLEDGE IN THE LESSONS OF STRUCTURAL MECHANICS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – C. 14-20.

26. Mahmudov Z., Najmiddinov I., Yuldasheva B. USING THE CONFUSED LOGICAL CHAIN METHOD IN ASSESSING STUDENT KNOWLEDGE //Solution of social problems in management and economy. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 4-12.

27. Mahmudov Z. S. Isaboev Sh. M., Abdujabborov AA, Rakhmatillaev YN Use of Modern Methods of Assessing Students' Knowledge //Undishapur Journal of Microbiology. – 2022. – T. 15. – №. 1. – C. 3280-3286.

28. Sotivoldievich M. Z. AN EFFECTIVE WAY TO ASSESS STUDENT KNOWLEDGE //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 756-761.

29. Assessment of Students' Knowledge Using a Confusing Logical Chain Method.// Jundishapur Journal of Microbiology. Vol. 15, No.1. -2022.-C. 2847-2854. Mahmudov Z. S.,Rahimov A.M., Najmiddinov I.B., Agzamov K.S.

30. Sotivoldievich M. Z., Mutalovich R. A. ABOUT A METHOD OF EVALUATING STUDENTS'KNOWLEDGE IN THEORETICAL MECHANICS LECTURES //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 2. – C. 6-12.

31. Sotivoldievich M. Z., Azamov K. S. USING THE CLUSTER METHOD FOR CONDUCTING LECTURES ON THEORETICAL MECHANICS //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 2. – C. 1-5.

32. Махмудов З. С., Рахимов А. М. Применение метода кластер для проведения лекционных и практических занятий //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 239-242.

33. Махмудов З. С., Аъзамов К. С. ПРИМЕНЕНИЕ ДИАГРАММЫ ВЕННА НА ЛЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 248-251.

WORDLY
KNOWLEDGE